# VIII INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "ABU ALI IBN SINO AND INNOVATIONS IN MODERN PHARMACEUTICS"



April 24th, 2025,
Tashkent / Uzbekistan





1 2

Adabiyotlarda *Stachys* turlarida iridoid glikozidlar va fenol birikmalari uchrashi haqida xabarlar keltirilgan. Bizning natijalarimiz buni tasdiqlagan holda bizgacha ma'lum natijalar bilan mos keladi. Hozirda *S. hissarica* o'simligini metabolitlarini va ularning biologik faolliklarini aniqlash ustida ish olib borilmoqda.

## AJRIQ (CYNODON DACTYLON (L.) PERS.) ISTIQBOLLI DORIVOR O'SIMLIK

**Nazarov U.Z., Ganiyev A.K., Abdullayeva X.K.**

*Toshkent farmasevtika instituti*

**Dolzarbligi:** Xalq tabobatida qo'llaniladigan o'simliklarni fitokimyoviy va farmakologik o'rganish asosida ularni ilmiy tibbiyotga tatbiq etish dori vositalarining assortimentini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi "O'zbekiston Ryespublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4668 - son qarorida xalq tabobatida foydalaniladigan o'simliklarni o'stirish va xom ashyosini tayyorlashni, ushbu yo'nalishda laboratoriya va ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni tashkil etish, shuningdek, xalq tabobatida eng ko'p ishlatiladigan o'simliklar xom ashyosini mahalliylashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Xalq tabobatida keng qo'llaniladigan, boshoqdoshlar(Poaceae) oilasiga kiruvchi o'simliklardan biri - oddiy ajriq (Cynodon dactylon (L.) Pers.) o'simligidir.

**Tadqiqotning maqsadi:** O'zbekistonning barcha viloyatlarida begona o't sifatida o'suvchi oddiy ajriq (Cynodon dactylon (L.) Pers.) o'simligi bo'yicha ilmiy va Internet ma'lumotlarini taxlil qilish, olingan ma'lumotlar asosida o'simlikdan xalq tabobati va ilmiy tibbiyotda foydalanish bo'yicha tavsiyalar tayyorlashdan iborat bo'ldi.

**Usul va uslublar:** Tadqiqotlar uchun mavjud manbalardan Cynodon dactylon (L.) Pers. o'simligiga oid ilmiy adabiyotlar va Internet ma'lumotlarini qiyosiy o'rganildi. Ommabop va shubhali ilmiy adabiyot manbalaridan olingan ma'lumotlarni izlanishlardi qo'llanilmadi. Bir necha manbalarda tasdiqlangan ma'lumotlar "ishonchli" deb qabul qilindi.

**Natijalar:** Oddiy ajriq (Cynodon dactylon (L.) Pers.) o'simligi - ko'p yillik, ildizpoyali, boshoqli, o'simta va sudralib o'suvchi novdalardan o'tsimon tup hosil qiluvchi begona o't. O'simlikning keng tarqalgan nomlari: Bermud o'ti, Bagam o'ti; durbagxas (Bangladesh); gou ya gen (Xitoy); arugampullu, dramun, durba (Hindiston); barava (Pokiston). O'simlikning yer ustki qismi chorva mollari uchun yaxshi ozuqa bo'lishi barobarida, ular tibbiy maqsadlarda, shuningdek, landshaft dizaynida ham qo'llaniladi. Xalq tabobatida dizenteriyaga qarshi (Bangladesh, Hindiston va Pokiston), Hindistonda gijjaga qarshi vosita sifatida ishlatiladi, biroq antiparazitar ta'siriga oid aniq farmakologik ma'lumotlar tasdiqlanmagan. O'simlikning tabobatda qo'llanilishi uning tarkibidagi biologik faol moddalari bilan izohlanadi. U flavonoidlarga, jumladan katexin, kversetin, mirisetin, rutin va kempferolga boy. Bundan tashqari, o'simlik tarkibida karotinoidlar (violaksantin, lyutein, zeaksantin va β-karotin) va xlorofill-ß, askorbin kislotasi, qahva kislotasi va siren kislotasi kabi moddalar bor. O'simlikning ildizpoyalari ekstraktlari va qaynatmalari yallig'lanishga qarshi, siydik haydovchi va qusishga qarshi xususiyatlarni namoyon qiladi. Bundan tashqari, o'simlikning suvli ekstraktlari yuqori antidiabetik faollikka, etanolli ekstraktlari esa grammusbat va grammanfiy bakteriyalarga qarshi o'rtacha antibakterial faollikka ega.

**Xulosalar:** Oddiy ajriq (Cynodon dactylon (L.) Pers.) o'simligi xalq tabobatidan tashqari, OBQ shaklida: quritilgan ildizlari, 50 g dan (Tria Enniaria); "Suveren" ichish uchun 600 ml li eritma; CYNODON DACTYLON gomeopatik preparati o't pufagi yetishmovchiligida qusishni to'xtish, burundan qon ketish, gemotoptoz, gemotemiz, menorragiya, leykoreya, dizenteriya, qon ketish yaralari, siydikni ushlab turish yoki bostirish, kataral oftalmiya uchun ajoyib vositadir. Vaholanki, o'simlik nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlarida keng tarqalgan bo'lib, chuqur fitokimyoviy va farmakologik o'rganishlar asosida o'zining ilmiy tibbiyotdagi munosib o'rnini egallashi kutilmoqda.

*NEPETA SCHTSCHUROWSKIANA* O‘SIMLIGI EFIR MOYLARINING KIMYOVIY TARKIBI VA BIOLOGIK FAOLLIKLARI ........ 205
Mamadaliyeva R.Z., Mamajonov A.B.

DERMATOLOGIYADA AYRIM KASALLIKLARNI DAVOLASHDA QO‘LLANUVCHI DORI VOSITALARI VA BIOFAOL QO‘SHIMCHALAR TARKIBIDAGI DORIVOR O‘SIMLIKLARNI FARMAKOGNOSTIK TAHLILI ........ 206
Mardonov Sh.T., Komilov X.M.

*STACHYS HISSARICA* NING TARKIBIDAGI IRIDOID VA FENOL BIRIKMALARI ........ 206
Muhammadiyev E.A., Mamadaliyeva N.Z.

AJRIQ (CYNODON DACTYLON (L.) PERS.) ISTIQBOLLI DORIVOR O‘SIMLIK ........ 207
Nazarov U.Z., Ganiyev A.K., Abdullayeva X.K.

*RINDERA CYCLODONTA* O‘SIMLIGIDAN AJRATILGAN XINOZOLIDIN ALKALOIDI ........ 208
Olimova H.N., Kurbanov U.X., Turgunov K.K., Mukarramov N.I.

“GEPAGAL” QURUQ EKSTRAKTINING SUVDA ERUVCHI VITAMINLAR TAHLILI ........ 208
Qayumova G.G’., Qayumov F.S., Mamatqulov Z.U.

CHIA URUĢINING FOYDALI XUSUSIYATLARI ........ 209
Quyliyeva M.U.

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA TARQALGAN *HERNIARA GLABRA* O‘SIMLIGI BARGLARI TARKIBIDAN EFIR MOYINI AJRATIB OLISH ........ 210
Sanoyev A.I., Oxundedayev B.S., Chulpanov K.A., Makhmudkhonova N.S.

OQ KARRAK O′SIMLIGINI (*SILYBUM MARIANUM*) IN VITRO KULTURAGA KIRITISH USULLARINI TADQIQ ETISH ........ 210
Sattarov A.N., Qayumov F.S.

QUSHTORON O‘SIMLIGINI IN VITRO SHAROITIDA KALLUS TO‘QIMASINI OLISH ........ 211
Ubaydullayeva X.A., Usubboeva Sh.M., Xadjimetova S.R.

DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISHDA RIZOBAKTERIYALARNING AHAMIYATI ........ 212
Xalkuziyeva M.A., Kiryigitov X.B., Qudratov Sh.

DORIXONA UKROPI (FOENICULUM VULGARE MILL.) YER USTKI QISMI EFIR MOYI SIFAT TAHLILI ........ 212
Xursandov A.Y., Umarov U.A., Kurbonova N.U.

YUQUMLI KASALLIKLARNI DAVOLASHDA VIRUSLARGA QARSHI GIYOHLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI ........ 213
Yo'ldosheva G.B., Eshniyozova N.A.

ZARCHAVA - CURCUMA LONGA L. NING SHIFOBAHX XUSUSIYATLARI ........ 214
Yulchiyeva M.T., Dusmuratova F.M.

BROUSSONETIA PAPYRIFERA O‘SIMLIGI BARGIDAN POLIFENOLLAR AJRATIB OLISH ........ 215
Yulchiyeva U.A., Abdullajonova N.G., Abdullayev Sh.V.

*SILENE POPOVII* SCHISCHK NING YALLIG‘LANISHGA QARSHI FAOLLIKKA EGA BO‘LGAN YANGI TRITERPENOID ........ 215
Yusupova U.Yu., Usmanov D.A., Ramazonov N.Sh.

ИНГИЧГА БАРГЛИ ҚЎҒА ЎСИМЛИГИ ТАРКИБИДАГИ БИОФАОЛ МОДДАЛАРНИ АНИҚЛАШ .. 216
Абаджанов Д.И., Саидвалиев А.Қ., Шамсиев Ш.Ш.

АМИНОКИСЛОТНЫЙ СОСТАВ КЛЕВЕРА ПОЛЗУЧЕГО ........ 217
Абдуганиева М.Ф., Халилова Ш.Р., Урманова Ф.Ф.

ФИТОХИМИЧЕСКИЙ СКРИНИНГ СЫРЬЯ ЧЕРЕДЫ ОЛИСТВЕННОЙ (*BIDENS FRONDOSA* L.) ФЛОРЫ УЗБЕКИСТАНА ........ 217
Абдуллаева Р.А., Фарманова Н.Т.

НЕКОТОРЫЕ АНАЛИТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ БИОХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТИТЕЛЬНОГО СЫРЬЯ ........ 218
Альдекова Р.А., Оспанова Г.С., Байзаков О.Д.

ИССЛЕДОВАНИЕ МОРФОЛОГО-АНОТОМИЧЕСКОГО СТРОЕНИЯ ЛИСТЬЕВ И ПЛОДОВ ПСОРАЛЕИ КОСТЯНКОВОЙ ДЛЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ ........ 219
Асетқызы А., Бисимбаева А.В., Бабаева Г.Б., Абленова А.Т.

ЛИПИДЫ СЕМЯН DATISCA CANNABINA L. ........ 219
Ахмедова Д.Ш., Юлдашева Н.К., Нишанбаев С.З., Гусакова С.Д.

ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРҚАЛГАН FABACEAE ОИЛАСИ ВАКИЛЛАРИНИНГ ДОРИВОР ТУРЛАРИ ... 220
Ачилова Н.Т.